PUL BOZORI VA LIKVIDLIK SHARHI, 2026-YIL II CHORAK


Qisqa tavsif

2026-yil II choragida bank tizimining umumiy likvidlik profitsiti o‘rtacha 74,4 trln so‘mni tashkil etib, I chorakka (55,4 trln so‘m) nisbatan 34,2 foizga oshdi. Profitsit aprel oyidagi o‘rtacha 69 trln so‘mdan iyunda 81,2 trln so‘mgacha ko‘tarildi. Likvidlikning oshishi, asosan, byudjet operatsiyalarining likvidlikka oshiruvchi ta’siri hamda naqd pullarga bo‘lgan mavsumiy talabning pasayishi bilan izohlanadi.

Byudjet operatsiyalarining likvidlikka oshiruvchi ta’siri I chorakka nisbatan 2,7 barobarga oshib, 33,4 trln so‘mni tashkil etdi. Naqd pullarga talabning kamayishi bank tizimi likvidligini qo‘shimcha 5,6 trln so‘mga oshirdi. Bank tizimining umumiy o‘rtachalash talabi majburiy zaxiralash bazasining kengayishi hisobiga 6,3 foizga oshib, 19 trln so‘mga yetdi.


Byudjet tashkilotlari tomonidan auksionlar orqali joylashtirilgan muddatli depozitlar hajmi 84 foizga oshib, 14,8 trln so‘mni tashkil etdi. Chorak davomida 9,4 trln so‘mlik davlat qimmatli qog‘ozlari muomalaga chiqarildi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi obligatsiyalarining qoldig‘i 1-iyul holatiga 55,2 trln so‘mga yetdi, ular bo‘yicha daromadlilik esa pasayib, o‘rtacha 12,5 foizni tashkil etdi.


Bank tizimining umumiy likvidlik holati



BANKLARARO PUL BOZORI

Banklararo pul bozorida operatsiyalar hajmi I chorakka nisbatan 7,3 foizga oshib, 175 trln so‘mni tashkil etdi. Shundan 125,5 trln so‘mi yoki 72 foizi REPO operatsiyalariga to‘g‘ri keldi. Banklararo depozit operatsiyalari hajmi 17,8 foizga oshib, 49,4 trln so‘mga yetdi. Bozor faolligi may oyidagi 37,8 trln so‘mdan iyunda 77,3 trln so‘mgacha oshdi. Pul bozori operatsiyalari bo‘yicha o‘rtacha tortilgan foiz stavkasi 13,4 foiz darajasida, foiz koridori doirasida shakllandi.





BANKLARARO PUL BOZORINING SEGMENTATSIYASI

Overnayt operatsiyalar ulushi I chorakdagi 89 foizdan 93 foizgacha oshdi. Ularning hajmi 11,6 foizga o‘sib, 162,7 trln so‘mni tashkil etdi. Bu yuqori likvidlik profitsiti sharoitida banklarning uzoqroq muddatlarga resurs jalb qilishga ehtiyoji kamayganini ko‘rsatadi.

Likvidlikni jalb etish segmentida eng faol uchta bankning ulushi 81 foizdan 74 foizgacha pasaydi. Mazkur segmentda Herfindahl–Hirshman indeksi apreldagi 2 426 dan iyundagi 2 057 gacha kamaydi. Shunga qaramay, ushbu segment nisbatan konsentratsiyalashgan holatda qoldi, likvidlikni taqdim etish segmentida esa konsentratsiya nisbatan past bo‘ldi.

LIKVIDLIKNI TARTIBGA SOLISH OPERATSIYALARI

Markaziy bank tizimli likvidlik profitsitini tartibga solish uchun 7 kunlik obligatsiyalardan faol foydalandi. Ularning o‘rtacha haftalik joylashtirish hajmi I chorakdagi 49 trln so‘mdan 72 trln so‘mgacha, o‘rtacha qoldig‘i esa 48,7 trln so‘mdan 65,7 trln so‘mgacha oshdi. Overnayt depozit operatsiyalarining kunlik o‘rtacha hajmi 36 foizga oshib, 6,9 trln so‘mni tashkil etdi. Markaziy bankning pul-kredit operatsiyalari bo‘yicha o‘rtacha sof pozitsiyasi 72,6 trln so‘mga teng bo‘ldi. Likvidlikni taqdim etish operatsiyalariga talab minimal darajada saqlandi.

UZONIA stavkasi chorak davomida o‘rtacha 13,4 foizni tashkil etib, asosiy stavkadan 0,6 foiz bandga past shakllandi (I chorakda 0,3 foiz band). Maydagi o‘rtacha 13,1 foizdan iyunda 13,3 foizgacha tiklanish likvidlikni jalb etish ko‘lamining kengayishi bilan izohlanadi.

III chorakda byudjet operatsiyalari likvidlikni oshirishi, naqd pul va xorijiy valyutaga mavsumiy talab esa profitsitni kamaytirishi kutilmoqda. Markaziy bank pul bozori stavkalarining foiz koridori doirasida va asosiy stavkaga yaqin shakllanishini ta’minlash choralarini davom ettiradi.